

O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at muassasalari faoliyati


2024- yil uchun

- I. Faoliyat yuritayotgan muzeylar
- II. Faoliyat yuritayotgan teatrlar
- III. Konsert tashkilotlari va sirk
- IV. Botanika va hayvonot bog'lari
- V. Madaniyat va istirohat bog'lari
- VI. Kutubxona muassasalari
- VII. Madaniyat va san'at muassasalari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Faoliyat yuritayotgan muzeylar

O'zbekiston Respublikasida 2024- yilda faoliyat yuritayotgan muzeylar soni **138 tani** tashkil etgan. 2020- yilga nisbatan **33** taga, yoki **31,4 %** ga oshgan. Faoliyat yuritayotgan jami **138 ta** muzeylarning **79 ta** filiallari mavjud.

Faoliyat yuritayotgan muzeylar soni (birlikda)*



2024- yilda muzeylarga tashrif buyuruvchilarning jami soni **4 782,6** ming kishini tashkil etdi. Tashrif buyuruvchilar tarkibida umumta'lim maktablari o'quvchilari hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalarining ulushi **21,9 %** ni tashkil etgan. Jami tashrif buyuruvchilarning **36,6 %** i Toshkent shahri (**1 751,5 ming kishi**), **19,2 %** i Samarqand (**916,9 ming kishi**) hamda **14,2 %** i Buxoro (**699,6 ming kishi**) viloyatlari hissalariga to'g'ri keldi.

* O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi ma'lumotlari.

**Muzeylar soni va tashrif buyuruvchilarning
hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2024- yil uchun)


	Muzeylar soni, jami (birlikda)	Tashrif buyuruvchilar soni (ming kishi)
O'zbekiston Resp.	138	4 782,6
Qoraqalpog'iston Resp.	6	105,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	7	89,7
Buxoro	18	699,6
Jizzax	8	29,9
Qashqadaryo	4	277,1
Navoiy	5	37,3
Namangan	2	86,5
Samarqand	13	916,9
Surxondaryo	2	52,3
Sirdaryo	4	3,4
Toshkent	5	26,8
Farg'ona	12	191,2
Xorazm	17	514,9
Toshkent sh.	35	1 751,5

Muzeylardagi asosiy fond eksponatlari soni

O'zbekiston Respublikasi muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar saqlanmoqda, 2024- yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni **2 736** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **129,2 mingta (5,0 %)ga** ortgan.

Muzey eksponatlarining **28,6** mingtasi rassomlik, **64,9** mingtasi grafika, **4,4** mingtasi haykaltaroshlik, **67,1** mingtasi amaliy san'at, **321,9** mingtasi numizmatika, **441,6** mingtasi arxeologiya, **81,5** mingtasi maishiy va etnografiya, **275,0** mingtasi suratlar, **257,0** mingtasi hujjatlar va **1 193,9** mingtasi boshqa eksponatlardan iborat.


Muzeylardagi asosiy fond eksponatlarining turlari bo'yicha soni (ming birlikda)



II. Faoliyat yuritayotgan teatrlar

2024- yilda O'zbekiston Respublikasida jami teatrlar soni 48 tani tashkil etib, ularda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni **10 824** taga yetgan. Ushbu spektakllarga **3 665,4** ming nafar tomoshabinlar tashrif buyurgan.


Faoliyat yuritayotgan teatrlar soni



III. Konsert tashkilotlar va sirk

O'zbekiston Respublikasida 2024- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni **98** tani tashkil etib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **17** ta (**21%**)ga oshgan. Konsert tashkilotlari tomonidan namoyish etilgan konsertlar soni **8 001** tani tashkil etgan. Ushbu konsertlardagi tomoshabinlar soni **10 496,7** ming nafarga yetgan.

Faoliyat yuritayotgan konsert tashkilotlari hamda o'tkazilgan konsertlar soni (birlikda)



O'zbekiston Respublikasida "O'zbek davlat sirk" davlat muassasasi o'z faoliyatini olib bormoqda. 2024- yilda sirkda **551** ta tomosha tadbirlari bo'lib o'tgan. Tomosha tadbirlariga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni esa **157,3 ming** kishini tashkil etgan.

IV. Botanika va hayvonot bog'lari

O'zbekiston Respublikasida jami **7** ta hayvonot bog'lari mavjud bo'lib, ular Toshkent shahri, Farg'ona, Andijon, Namangan, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida o'z faoliyatlarini olib bormoqda. 2024- yilda hayvonot bog'lariga **1 232,2** ming nafar tashriflar amalga oshirilgan.

Respublikada Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasida botanika bog'lari mavjud. 2024- yilda botanika bog'lariga jami **310,2** ming kishi (shundan **310** ming kishi Toshkent shahriga, **0,2** ming kishi Qoraqalpog'iston Respublikasiga) tashrif buyurgan.



V. Madaniyat va istirohat bog'lari

O'zbekiston Respublikasida 2024- yilda **136** ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lgan, ularning nisbatan eng ko'pi Toshkent shahrida (**29 ta**), Andijon viloyatida (**24 ta**) va Surxondaryo viloyatida (**13 ta**). Nisbatan kam ko'rsatkich Sirdaryo (**2 ta**) va Jizzax (**2 ta**) viloyatlarida qayd etilgan.

Respublika miqiyosida madaniyat va istirohat bog'larining umumiy maydoni **1 361,0** gektarni tashkil qilib, ushbu bog'larga 2024- yil davomida **23 889,3 ming** kishi tashrif buyurgan, shundan **9 810,9 ming (41,1 %)** nafari bolalar. Shuningdek, mazkur bog'larda **1 652** ta attraksionlar mavjud.

Faoliyat yuritayotgan madaniyat va istirohat bog'lari soni (2024- yil uchun)

	Madaniyat va istirohat bog'lari soni, jami (birlikda)	Attraksionlar soni (birlikda)	Jami tashrif buyuruvchilar soni (ming kishi)
O'zbekiston Resp.	136	1 652	23 889,3
Qoraqalpog'iston Resp.	9	105	35,6
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	24	252	507,8
Buxoro	8	131	156,2
Jizzax	2	30	132,3
Qashqadaryo	9	108	257,6
Navoiy	9	77	311,7
Namangan	4	136	5 415,9
Samarqand	4	22	398,6
Surxondaryo	13	162	281,1
Sirdaryo	2	59	31,9
Toshkent	3	23	13,9
Farg'ona	6	156	380,0
Xorazm	14	51	97,0
Toshkent sh.	29	340	15 869,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Faoliyat yuritayotgan botanika va hayvonot bog'lari soni.

Faoliyat yuritayotgan madaniyat va istirohat bog'lari soni.

VI. Kutubxona muassasalari soni*

O'zbekiston Respublikasida 2024- yilda **14 999** ta kutubxona muassasalari mavjud bo'lib, ularning nisbatan eng ko'pi Farg'ona (**2 108 ta**) va Samarqand viloyatida (**1 863 ta**). Nisbatan kam ko'rsatkich esa Navoiy (**489 ta**) va Sirdaryo (**526 ta**) viloyatlarida qayd etilgan.

Faoliyat yuritayotgan kutubxona muassasalari soni (2024- yil uchun)

	Kutubxonalar soni, jami (birlikda)	Kitob va jurnallar soni (ming nusxada)	Foydalanuvchilar soni (ming kishi)
O'zbekiston Resp.	14 999	85 046,4	12 812,5
Qoraqalpog'iston Resp.	934	4 341,9	927,6
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1 065	8 255,6	1 056,7
Buxoro	764	5 861,6	910,9
Jizzax	868	1 415,2	469,9
Qashqadaryo	1 476	3 729,3	1 171,7
Navoiy	489	2 823,5	504,0
Namangan	891	6 814,8	1 092,4
Samarqand	1 863	6 963,5	1 273,6
Surxondaryo	1 159	2 835,2	1 002,8
Sirdaryo	526	1 402,8	477,3
Toshkent	1 467	5 128,8	984,1
Farg'ona	2 108	6 095,9	1 047,5
Xorazm	688	6 279,7	718,4
Toshkent sh.	701	23 138,6	1 175,6

Respublika bo'yicha kutubxona muassasalarida jami **85 086,4** ming nusxa kitob va jurnallar mavjud bo'lib, ushbu kitob va jurnallardan foydalanuvchilar soni **12 812,5** ming kishini tashkil etdi.

Foydalanuvchilar umumiy sonidan **31,6 %** ni 14 yoshgacha bo'lgan bolalar, **45,9 %** ni 15-24 yoshdagi o'smirlar va **22,6 %** ni 25 yosh va undan katta yoshdagi fuqarolar tashkil etdi.

* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ma'lumotlariga ko'ra, kutubxona muassasalari soniga mamlakat hududidagi barcha umumiy o'rta ta'lim maktablari kutubxonalari, oliy ta'lim muassasalari kutubxonalari, mahalliy hokimiyat organlariga qarashli axborot-resurs markazlari, shuningdek, vazirlik, idora va ular tasarrufidagi tashkilotlarga qarashli barcha axborot-kutubxona markazlari kiradi.

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 14- iyuldagi "Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijakorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" ПФ-111-son qarori bilan tugatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Faoliyat yuritayotgan kutubxona muassasalari soni.

Kutubxonada mavjud kitob va jurnallar soni.

Kutubxona foydalanuvchilari soni.

VII. Madaniyat va san'at muassasalari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Madaniyat – inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin;

Madaniy meros bu – xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun wasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi;

Madaniy meros obyektlari – moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari;

Konsert tashkiloti – konsert faoliyatini tashkil etish bilan shug'ullanuvchi (filarmoniya, konsert zali) yoki mustaqil jamoani (musiqiy, xor, raqs va boshqalar) tashkil etish bilan shug'ullanadigan madaniyat tashkiloti;

Sirk – bu sirk tomoshalari namoyish etiladigan arena (manej)ga ega bo'lgan bino bo'lib, vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadigan sirk artistlari jamoasidan iborat bo'lgan ko'ngilochar tashkilot;

Muzey – muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi;

Muzey fondi – muzeyda saqlanayotgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari majmui;

Kinoteatrlar – bu boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan statsionar kinoqurilmalar bilan jihozlangan maxsus bino;

Foydalanuvchilar soni – obunachilar yoki kitobxonlar soni bo'yicha amalga oshiriladi. Yil davomida kitob olgan kitobxonlarning umumiy soni yil oxiridagi obunachilar tartib raqami bilan belgilanadi.

Foydali havolalar:

[Madaniyat statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

["Rivojlanish uchun madaniyat" YUNESKO indiksatorlari](#)

[Madaniyat statistikasi tizimi YUNESKO 2009](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
*Ijtimoiy soha statistikasi
boshqarmasi*

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63

El. manzil: info@stat.uz

Tel.: 71-202-80-70 (71)

